

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI**

HIMOYAGA RUXSAT ETILDI

Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri

Reyimberganov A.

(imzo)

“ _____ ” _____ 2015 y.

KURBANBAYEV MARDONBEK DASTANBAYEVICH

**YOQILG'I QUYISH SHAHOBCHASI FAOLIYATINI
AVTOMATLASHTIRUVCHI DASTURIY TA'MINOT YARATISH**
mavzusidagi

5330200 – “Informatika va AT” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____
(imzo)

Kurbanbayev M.D.

Rahbar _____
(imzo)

Raximboyev X.J.

Maslahatchi _____
(imzo)

Allaberganova D.Q.

Taqrizchi _____
(imzo)

Masharipov S.A.

Urganch – 2015 y.

MUNDARIJA

KIRISH	
I BOB. Tizimli tahlil va masalaning qo'yilishi	
1.1. Yoqilg'i quyish shahobchasi faoliyatini avtomatlashtirishda AKTni qo'llashning ahamiyati.....	
1.2. AYoQSh va FYoTSH faoliyatini tizimli tahlil qilish.....	
1.3. AYoQSh operatori tomonidan yuritaladigan hujjatlar tahlili.....	
1.4. Masalaning qo'yilishi.....	
II BOB. Dasturiy ta'minotni yaratishning instrumental vositalari va metodlari	
2.1. Avtomatlashtirilgan yoqilg'i quyish shahobchasi dasturiy ta'minotini yaratish vositalari va texnologiyalarini tanlash	
2.2. MySQL MBBTda yoqilg'i quyish shahobchasi ma'lumotlar bazasini loyihalash.....	
2.3. Avtomatlashtirilgan FYoTSH tizimi dasturiy ta'minotidan foydalanish yo'riqnomasi.....	
III BOB. Mehnat muhofazasi va texnika havsizligi	
3.1. Havodagi gaz va chang moddalarining yonish jarayoni.....	
3.2. Yong'inni nazorat qilish, o'chirish usullari va texnik vositalari.....	
3.3. Avtomobillarga yonilg'i quyish shahobchalarida yong'inga qarshi kurash xizmatini tashkil etish.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilova	

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

KIRISH

Avtomatlashtirish – bu inson ish faoliyatini yoki qoʻl mehnatini mashina va mexanizmlar bilan almashtirish demakdir. U texnik, tashkiliy va iqtisodiy mazmundagi hatti-harakatlar hamda tadbirlar kompleksidan iborat boʻladi, ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv jarayonining u yoki bu ishini amalga oshirishda inson ishtirokini qisman yoki butunlay cheklash imkonini beradi. Hozirgi kunlarda Respublikamizda axborot texnologiyalari fan va texnika rivojlanishi natijasida har bir soha uchun turli dasturiy taʼminotlardan foydalanilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi paytda ko'pgina korxona, idora va tashkilotlar ish faoliyati davomida ko'plab turli axborotlar, ma'lumotlar to'planib qolishi aniq. Bu kabi ma'lumotlar aksariyat idora, tashkilotlarda qog'oz shaklida saqlanmoqda va ularga ishlov berishda, ma'lumotlar yig'ishda arxivdagi hamma hujjatlarni ko'tarishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ko'p mehnat va vaqt talab qiladi. Axborot tizimining asosiy vazifasi – axborotni to'plash, saqlash, unga ishlov berish va tahlil qilishdan iboratdir. Axborot tizimlarining qo'llanilishi qog'oz shaklidagi hujjatlar hajmini, vaqtni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarni rivojlantirish kelajakda bir yo'la bir qancha tashkilotlar, idoralarda foydalanish mumkin bo'lgan axborot tizimini va ma'lumotlar bazasini yaratishga yordam beradi. Yaratilgan va foydalana boshlagan axborot tizimlari foydalanuvchilarga har tomonlama qulay va tushinarli bo'lishi kerak. Hozirgi kunda inson faoliyatining turli sohalarida axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari asosida avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish va qo'llash, qabul qilinadigan yechimlar asosida ma'lumotlarni to'plash va qayda ishlash, saqlash sifatini oshiradi. Mavjud bo'lgan muommalarni kam vaqt ichida qo'l mehnatisiz yechimni topish imkonini yaratadi.

Yurtimizda axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari ta'lim, medisina, bank, transport, qurilish va ko'pgina ijtimoiy - iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda AYoQSH larda ham qo'llanila boshlamoqda.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

Har bir sohaga kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiyalari jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda va shu asosida rivojlanib, yangilanib bormoqda. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari hayotimizga kirib kelishi bilan, qo'l mehnati bilan amalga oshiriladigan amallar, kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida vaqtdan samarali foydalanishni, kam harajatni va unumdorligni oshirishga yordam beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy **maqsadi** fermerlarga va tashkilotlarga yoqilg'i mahsulotlarini tarqatuvchi AYoQSH operatorlarining faoliyatini avtomatlashtirilgan tizimini yaratishdan iborat. Bu tizim har tomonlama qulay bo'lishi bilan birga qo'l mehnatini osonlashtiruvchi va qog'oz sarfini kamaytiruvchi tizim hisoblanib, AYoQSH operatorining hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini osonlashtirib beradi. Shu bilan birga AYoQSH xodimlarining mehnat sarfi kamayishi natijasida ish unumdorligi oshadi. Ya'ni, ushbu tizim AYoQSH xodimlari uchun tushunarli va qulay hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti: "Urganch neft baza" unitary korxonasining avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, fermerlarga yoqilg'i tarqatish filiallari, ulardagi texnologik jarayonlar, AYoQSH va FYoTSH lardagi operatorlarni ish faoliyati.

Butun dunyo bo'ylab yoyilgan turli xil tizimlar, dasturlarning imkoniyatlarini ko'rib juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Shu sababdan, O'zbekistonda ham hozirda turli xil tizimlar, dasturlar va ma'lumotlar bazalarini yaratish keskin rivojlanib bormoqda. Firmalar, tashkilotlar, korxonalar, o'quv muassasalarida ham turli xildagi web texnologiyaga asoslangan dasturlardan foydalanib kelinmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda AYoQSH operatori hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonini avtomatlashtirish uchun web texnologiyalarga asoslangan dasturlash tillaridan bo'lgan Java, JS va MySQL ma'lumotlar bazasi dasturlaridan va JSP, Ajax texnologiyalaridan foydalanildi.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

I BOB. TIZIMLI TAHLIL VA MASALANING QO'YILISHI

1.1. Yoqilg'i quyish shahobchasi faoliyatini avtomatlashtirishda

AKTni qo'llashning ahamiyati

Avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ) - foydalanuvchiga ma'lumotlarni ishlab chiqish va aniq muammoli sohada boshqaruv vazifalarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi axborot, dasturiy va texnik resurslar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish axborotni jamlash, saqlash va ishlab chiqish bo'yicha asosiy operatsiyalarni hisoblash texnikasiga yuklanishini, iqtisodchiga esa qo'ldagi operatsiyalarni bir qismini va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ijodiy yondoshishni talab qiluvchi operatsiyalarning bajarilishini ko'zda tutadi. Shaxsiy texnika esa foydalanuvchi tomonidan ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatini, vazifani yechishni borishida ayrim parametrlarning miqdorini o'zgarishini nazorat qilish, hamda joriy vazifalarni echish va boshqaruv vazifalarini tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga dastlabki ma'lumotlarni kiritishda qo'llaniladi.

Idoralarning asosiy faoliyati qaror qabul qilish maqsadida axborotni qayda ishlashdir. Turli darajadagi idoralarda tashkilot siyosati shakllanadi va shu erdan rahbariyat kundalik operatsiyalarni amalga oshiradi. Idorada bo'linmalardan, tashqi muhitdan axborot yig'iladi, yig'ilishlar, uchrashuvlar o'tkaziladi, qarorlar qabul qilinadi. Chunki idora boshqaruv ishini tashkil etish shakli bo'lib, uning ishini takomillashtirish boshqaruv apparati ishining samaradorligini oshirish shartlaridan biridir.

Har qanday boshqarish apparatida inson asosiy elementlardan biri hisoblanadi va bu apparat faoliyatini turli vositalar va kadrlar bilan ta'minlash katta mablag'larni talab qiladi. Masalan, Angliya Milliy hisoblash markazining ma'lumotlariga qaraganda, boshqarish apparatining harajatlari firma harajatlarining 45-50 foizini tashkil qiladi, shundan: menejerlar – 46 %, mutaxassislar - 33 %, kotibalar - 7 %. Izlanishlar natijasida boshqarish apparati

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

xodimlari ish vaqtlarining taqsimoti aniqlanadi. Masalan, rahbar 60 % vaqtini suhbat, uchrashuv va boshqa tadbirlarni o'tkazishga, mutaxassislar – 33 %, xodimlar – 12 %, kotibalar – 6 % sarflaydilar. Qolgan vaqtni esa ma'lumotlar bilan ishlashga sarflaydilar.

Boshqarish apparatida 30 dan ortiq ish turlari mavjud bo'lib, unda hujjatlarni qayda ishlash asosiy hisoblanadi. Ish turlari ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin; korxona ichida va boshqa tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish, axborotni izlash, jamlash, va qayda ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va echimini topish, tashkiliy faoliyatini boshqarish, xizmat ko'rsatish va boshqalar. Umumiy holda boshqarish apparatining xizmatlarini uch turga ajratish mumkin; hujjatlar bilan ishlash, aloqa o'rnatish va qaror qabul qilish. Shu sababli ham, zamonaviy axborot texnologiyalari yuqoridagi ishlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Buning uchun, eng avvalo, aqliy mehnatga asoslangan vazifalarni avtomatlashtirish lozim va «qog'ozsiz» texnologiyani joriy qilishga asos solmoq kerak, natijada ish vaqtining 15% ni tejash imkoniyati tug'iladi.

Boshqarish apparati faoliyatini avtomatlashtirish uchun birinchi navbatda, hujjatlar bilan turli ishlarni bajaruvchi tizimlar lozim, ya'ni «qog'ozli» faoliyatini «qog'ozsiz» elektron tizimga aylantirish kerak.

Elektron tizimning asosiy xususiyati - matnlar bilan ishlash harajatlarini kamaytiradi. Masalan, kartotekalarni elektron fayllar bilan almashtirish natijasida ma'lumotlarni ishlash harajatlari 60% ga kamayadi, elektron aloqani o'rnatish natijasida yana 40% harajatlarni iqtisod qilish mumkin. Buning uchun boshqarish apparati zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bundan 15-20 yil ilgari boshqarish apparati mexanik yoki elektron mashinalari, telefon, teleks va fotonusxa oluvchi qurilmalar bilan ta'minlangan edi. Hozirgi kunda esa quyidagi texnik vositalar bilan ta'minlangan; kompyuter, dasturiy vositalar, chop qilish qurilmasi, «kseroks» turidagi nusxa olish, faks jo'natish, tele anjuman o'tkazish va boshqa bir qator vositalar. Buning natijasida

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

axborotni qidirish, matnni tahrirlash va boshqa vazifalarni bajarish harajatlari kamaydi. Axborot qisqa vaqtlarda turli masofadagi foydalanuvchilarga etkazilmoqda. Demak, boshqaruv sohasi xodimlari (hisobchilar, kredit bank tizimi mutaxassislari, rejachilar va h.k.) faoliyati hozirgi vaqtda rivojlangan texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Boshqaruv vazifalarini tashkil qilish va amalga oshirish ham boshqaruv texnologiyasining o'zini, ham axborotni ishlab chiqishning texnik vositalarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi, ular orasida shaxsiy kompyuterlar asosiy o'rinni egallaydi. Ular borgan sari kiruvchi axborotni avtomatik qayda ishlash tizimlaridan boshqaruv xodimlarining tajribasini joylash, eng samarali iqtisodiy qarorlarni tahlil qilish, baxollash va tanlash vositalariga aylanmoqdalar.

Lokal boshqaruvning kuchayishi tendentsiyasi o'z ketidan axborotni hisoblash texnikasi vositalarini markazlashmagan holda qo'llash va foydalanuvchilarning bevosita ish joylarini tashkil qilishni takomillashtirish bilan taqsimlangan holda ishlab chiqishni olib keladi.

Avtomatlashtirilgan ish joyining boshqaruv faoliyatini ratsionalizatsiyalash va intensivlash uchun vazifalarning ba'zi bir guruhlarini bajarilishini ta'minlash uchun qurol sifatida yaratiladi. Axborot-ma'lumotnoma xizmatini ko'rsatish avtomatlashtirilgan ish joyining eng oddiy shakli bo'ladi. Bu vazifa u yoki bu darajada har qanday avtomatlashtirilgan ish joyiga xos bo'lsa ham, uni amalga oshirishning xususiyatlari ko'proq foydalanuvchining kategoriyasiga bog'liq.

Avtomatlashtirilgan ish joyini mahalliyashtirish u bo'yicha kelib tushgan axborotni darhol operativ ishlab chiqishni amalga oshirishga, ishlab chiqish natijalarini esa foydalanuvchining talabi bo'yicha kerakligicha saqlashga imkon beradi.

Boshqaruv jarayonini amalga oshirish sharoitlarida avtomatlashtirilgan ish joyini tadbiq etishdan maqsad boshqaruv vazifalarini integratsiyalashuvini kuchayishi hisoblanadi, har qanday ko'proq yoki kamroq aqliy mexnatni talab

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

etuvchi ish joyi ko`p vazifaviy rejimdagi ishni ta'minlashi kerak.

Avtomashtirilgan ish joyi ma'lumotlarning taqsimlangan bazalari tarkibida bajaruvchilarning ish joylarida iqtisodiy axborotni markazlashmagan bir vaqtdagi ishlab chiqishini bajaradi. Bunda ular tizimli qurilmalar va aloqa kanallari orqali boshqa foydalanuvchilarning EHM va MBlariga chiqishlari, shuning bilan jamoaviy ishlab chiqish jarayonida hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlashlari mumkin.

Shaxsiy kompyuterlar bazasida yaratilgan avtomatlashtirilgan ish joyi - tashkiliy boshqaruv sohaslarining xodimlari uchun avtomatlashtirilgan ish joyining eng sodda va keng tarqalgan variantidir. Bunday avtomatlashtirilgan ish joyi ishning interaktiv rejimida aniq xodimga (foydalanuvchiga) ishning butun seansida yakka xokimlikni ta'minlashning barcha turlarini taqdim etuvchi tizim sifatida qo`rib chiqiladi, bunga ko`ra aniq avtomatlashtirilgan ish joyining magnitli manbalardagi axborot fondi avtomatlashtirilgan ish joyindan foydalanuvchining o`z ixtiyorida bo`ladi. Foydalanuvchi axborotni qayda o`zgartirish bo`yicha barcha vazifaviy majburiyatlarni o`zi bajaradi.

Shaxsiy kompyuterlar bazasida avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish quyidagilarni ta'minlaydi:

- foydalanuvchiga nisbatan sodda, qulay va do`stonalikni;
- foydalanuvchilarning aniq vazifalariga moslashishni osonligini;
- joylashishning ixchamligi va foydalanish sharoitlariga yuqori bo`lmagan talablarni;
- yuqori ishonchlilik va yashovchanlikni;
- texnik xizmat ko`rsatishni tashkil qilishni nisbatan soddaligini;
- Avtomatlashtirilgan ish joyi quyidagi extiyojlarni qanoatlantirishi kerak;
- foydalanuvchilar tayyorgarligining har xil darajalariga mo`ljallanganligi;

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

- foydalanuvchining axborotli ehtiyojlarini o`z vaqtida qanoatlantirish;
- tizimni foydalanuvchining so`roviga javob berish vaqtini qisqartirish;
- ishning ishonchliligi va xizmat ko`rsatishni soddaligini;

Yechilayotgan vazifalar va muammoli sohaga ko`ra avtomatlashtirilgan ish joyining har xil turlari belgilanishi mumkin. Ammo iqtisodchilar avtomatlashtirilgan ish joyi guruhiga kiruvchi tizimlar eng katta guruh bo`ladi.

Ushbu guruh avtomatlashtirilgan ish joyi tarkibiga har xil turdagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning idora faoliyatini hisobga olish, nazorat va tahlil qilish vazifalarini echishni ta'minlovchi dasturiy vositalar kiradilar. Avtomatlashtirilgan ish joyi muloqotli tadbirlarni rivojlangan komponentli tashkil qilinishiga ega tizim bo`ladi. Foydalanuvchi va EHM o`rtasida muloqotni tashkil qilishda foydalanuvchini avtomatlashtirilgan ish joyi muxitida ishlashga tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur. Avtomatlashtirilgan ish joyini loyihalashtirishda muloqotli o`zaro hamkorlikning darajasini foydalanuvchilarning ko`rsatib o`tilgan guruhlariga qo`llagan holda hisobga olish zarur.

Muloqotli tadbirlar tarkibiga qo`shimcha axborotga ega bloklarni avtomatlashtirilgan ish joyi ishining taklif qilingan rejimlari bo`yicha kiritish zarur.

Avtomatlashtirilgan ish joyining vazifaviy imkoniyatlari bilan tanishgani sari foydalanuvchi kerakli rejimni yoki u yo bu iqtisodiy ko`rsatkichning hisob – kitobini jadallik bilan chaqirish imkoniyatiga ega bo`lishi kerak. Avtomatlashtirilgan ish joyini loyihalashtirish jarayonida axborot bazasi, avtomatlashtirilgan ish joyining arxitekturasini tashkil qilish, avtomatlashtirilgan ish joyini tashkil qilishning asloxaviy vositalarini tanlash, hamda HT vositalarini tanlash vazifalari belgilanishi kerak.

Avtomatlashtirilgan ish joyi ostida yakuniy foydalanuvchining ish joyida o`rnatilgan avtonom ham hisoblash tarmogi tarkibida ishlovchi EHM asosida

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

uning kasbiy faoliyati vazifalarini texnik va tashkiliy uslubiy ta'minoti o'z ichiga oluvchi asloxaviy vositalarning majmuasi tushuniladi.

Amalga oshirilayotgan vazifalariga ko'ra avtomatlashtirilgan ish joyining uchta sinfi ajratiladi:

1. Rahbarning avtomatlashtirilgan ish joyi;
2. Mutaxassisning avtomatlashtirilgan ish joyi;
3. Texnik xodimlarning avtomatlashtirilgan ish joyi.

Axborotni ishlab chiqishning barcha xizmat rejimlari avtomatlashtirilgan ish joyi - tahlilchida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan axborotli ta'minoti asosida texnologik amalga oshirilishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan ish joylarini loyihalashtirish bosqichlari. Loyiha ishlarining tarkibi va mazmuni ko'proq darajada tashkiliy va texnologik harakterdagi bir qator omillarga bog'liq. Loyihalashtirishning birinchi bosqichida avtomatlashtirilgan ish joyini yaratish maqsadlari belgilanadi.

Avtomatlashtirilgan ish joyini loyihalashtirishning bosqichlari va qadamlari quyidagilardan iborat:

1-bosqich - loyihadan oldingi tadqiqot.

1-qadam - loyihalashtirish uchun materiallarni yig'ish bo'yicha talablarni shakllantirish, loyihalashtirish ob'ektini o'rganish, tizimni rivojlantirish variantlarini ishlab chiqish va tanlash.

2-qadam - materiallarni tahlil qilish va hujjatlarni shakllantirish, boshlang'ich yig'ilgan tadqiqot materiallari asosida tizimni loyihalashtirishga texnik-iqtisodiy asoslar va texnik vazifalarni yaratish va tasdiqlash.

2-bosqich - loyihalashtirish.

1-qadam - texnik loyihalashtirish, bu erda ishlab chiqishning barcha nuqtai nazaridan eng ratsional loyiha qarorlarini tanlash ish olib boriladi, tizimning barcha tarkibiy qismlari yaratiladi va yozma bayon qilinadi, ishning natijalari esa texnik loyihada aks ettiriladi.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

2-qadam - ishchi loyihalashtirish, bu jarayonda dasturlarni ishlab chiqish, ma'lumotlar bazalarining tuzilishiga tuzatishlar kiritish, texnik vositalarni etkazib berish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalarni yaratish, texnik vositalaridan foydalanish asosida o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotgan ijrochi-mutaxassislarga lavozim yo'riqnomalari ko'rinishidagi rasmiylashtirilgan keng yo'riqnoma materiallar tizimini tayyorlash amalga oshiriladi.

3-bosqich - tizimni ishga tushirish.

1-qadam - tadbiq etishga tayyorlash - texnik vositalarni o'rnatish va foydalanishga topshirish, ma'lumotlar bazalarini yuklash va dasturlarda tajriba o'tkazish, xodimlarni o'qitish.

2-qadam - tizimning barcha tarkibiy qismlarini sanoat foydalanishiga topshirishdan oldin tajriba sinovlaridan o'tkazish.

3-qadam - sanoat foydalanishiga topshirish, ishlarni qabul qilish - topshirish dalolatnomalari bilan rasmiylashtirish.

4-bosqich - sanoatda foydalanish - kundalik faoliyat yuritishdan tashqari o'z ichiga dasturiy vositalar va butun loyihani kuzatib borishni, operativ xizmat ko'rsatish va ma'lumotlar bazalarini ma'muriyatlashtirishni oladi.

Avtomatlashtirilgan ish joyi vazifalarining murakkab majmuasidan iborat bo'ladi, u xizmat vazifalarini echishdan tashqari yana bir qator quyidagilarni ham ta'minlaydi:

- lokal (mahalliy) va unumtizimiy ma'lumotlar bazasi bilan ishlash.
- foydalanuvchi bilan rivojlangan interfeysni qo'llab quvvatlash
- boshqa avtomatlashtirilgan ish joyi bilan kommunikatsion jarayonni qo'llab-quvvatlash.

Shuning uchun avtomatlashtirilgan ish joyi ning bu xususiyatlari loyihani ishlab chiqishning barcha bosqichlarida hisobga olinishi kerak.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

1.2. AYoQSh va FYoTSH faoliyatini tizimli tahlil qilish

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sohasi Respublikamizda eng muxim va zarur sohalardan biridir. Hozirgi kunda bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda, kichik yer maydonlar birlashtirilib yirik fermer xo'jaliklari tashkil qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida fermer xo'jaliklariga yurtimiz tamonidan ko'plab imkoniyatlarni yaratilmoqda ya'ni fermer xo'jaliklarni texnika bilan taminlash va ular uchun aloxida yoqilg'i quyish shahobchalari o'z tumanlarida tashkil qilingan. Fermerlarga neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazish, qishloq xo'jaligida sifatli mahsulotlarni etkazishdagi muxim omillardan biridir. Agar fermerlar neft mahsulotlari bilan o'z vaqtida ta'minlanmasa texnika vositalaridan foydanishni vaqtinchalik to'xtatib ish unumdorligini pasayishiga olib keladi. Hozirgi fermer va tashkilotlarga neft mahsulotlarini etkazish neftbazaning xududlardagi filialllari orqali tarqatish yo'ga qo'yilgan. Bu filiallarda fermer va tashkilotlarga neft mahsulotlarini tarqatish tartibi quyidagicha:

- *Filialda navbatchiliklarni tashkil qilinishi.* Fermer va tashkilotlarni o'z vaqtida neft mahsulotlari bilan ta'minlash uchun filial o'z faoliyatida 24 soat to'xtovsiz xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi kerak. Buning uchun filialdagi hodimlar orasida navbatchilikni tashkil qilishi kerak bu bilan fermer va tashkilotlarga istalgan vaqtda xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi va ish unumdorligini oshiradi;
- *Filial rahbari mavjudligi.* Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi rahbari bevosita shahobcha uchun javobgar shaxs hisoblanadi va o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shahobcha manfaatlarini ko'zlagan holda qaror qabul qiluvchi shaxs hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari filialdagi ishlarni rejalashtirish, ishni tashkillashtirish va vazifalarni bo'lib berishdan iborat.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

- *Neft mahsulotlarini qanday saqlanishi.* Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari uchun nizomda belgilab qo'yilgan texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga mavjud bo'lib shahobchalarda ushbu nizom asosida texnika va yong'in xavfsizligi ishlab chiqilgan bo'lishi va unga qa'ttiyan rioya qilinishi shart;

- *Har bir mahsulot alohida idishda saqlanishi.* Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalarida neft mahsulotlarini aloxida idish (bunker) larda saqlanadi. bunga sabab ularning aralashib ketmasligi, hajmining bir xil emasligi, har xil temperaturada bo'lishidir.

Hozirgi kunda avtomobillarning turlariga qarab va ularning ehtiyojidan kelib chiqqan holda quyidagi neft mahsulotlari mavjud:

- 1 Avtobenzin
- Ai-80
- Ai-91, Ai-92
- Ai-95
- 2 Dizel yonilg'isi
- 3 Dizel yonilg'isi EKO
- 4 Mazut yonilg'isi
- 5 Aviakerosin TS-1
- 6 Aviakerosin Jet A-1
- 7 Aviabenzin (B-92)
- 8 Ekstrabenzin
- 9 O'choq yonilg'isi
- 10 Texnik kerosin
- 11 YOrug'lik kerosini
- 12 Suyuq bitum (yo'lbop, singdirilgan)
- 13 Qattiq bitum (qurilish uchun)
- 14 Nefras 130-210

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

15 Uglevodorod eritgichi S4-135/220

16 Neft parafini "T"

17 Parafin shamlari

18 Dekorativ shamlar

19 Gach

20 Suyultirilgan gaz

21 Oltingugurt (qoplangan)

22 Neftkoks jamlangan

23 Neftkoks toblangan

24 Petralatum

Moylar va surkov moylari:

Motor moylari

25 M-20A

26 M-10V2

27 M-10G2K

28 M-14V2

29 M-14G2K

30 Ferganol SAE-40 APCB

31 M-8V

32 Ferganol M-63/14G

33 Ferganol M-53/14-E

34 SAE10W-30 moyi

35 SAE10W-40 moyi

36 SAE15W-40 moyi

37 SAE20W-40 moyi

38 SAE20W-50 moyi

Sanoat va maxsus moylar

39 I-8A

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

40 I-12A

41 I-20A

42 I-30A

43 I-40A

44 I-50A

Boshqa moylar

45 MG-8A

46 Ferganol SAE-140 GL-2 (Nigrol)

47 AU ionol bilan

48 AU ionolsiz

49 KP-8S (kompressor uchun)

50 Turbina moyi TP-22S

51 Turbina moyi TP-30

52 Transformator moyi

53 PS-28

54 I-460PV

55 XA-30

Surkov moylari

56 Fersol

57 PAS surkov moyi

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

1.3. AYoQSh operatori tomonidan yuritaladigan hujjatlar tahlili

AYoQSh, FYoTSH lar stantsionar, harakatlanuvchi va konteynerli to'lishi mumkin. Statsionar AYoQSh, FYoTSH lar avtoyo'llar bo'yida, aholi punktlarida, shaharlarda qattiy bir yer uchastkasida shoylashgan bo'ladi. Harakatlanuvchi AYoQSh, FYoTSH lar odatda avtotransporlar qishloq xo'jaligi texnikalari ko'p to'lanadigan joylarda bo'ladi. Ushbu tipdagi AYoQSh, FYoTSH lar juda qulay bo'ib masalan qishloq xo'jaligidagi texnikalarni ishdan ajiralmagan holda yoqilg' quyishi uchun imkoniyat yaratadi. Konternerli AYoQSh, FYoTSH lar yoqilg' saqlash idishlari yer yuzasida joylashishi va yoqilg' quyish kolonkasi neft mahsuloti saqlanadigan kontenerlarda joylashganligi bilan xarakterlanadi. yuqorida keltirilgan har bir AYoQSh, FYoTSH da alohida dispecherlik punktlari bo'ladi. Ular yoqilg' quyish kolonkalari va nazorat o'lchov vositalariga ega bo'ladi. Bu qurilmalarni barchasini AYoQSh, FYoTSH operatori boshqaradi. Ular AYoQSh, FYoTSH dagi texnologik jarayonlar borishi va AYoQSh, FYoTSH uzliksiz ishlashi uchun masul hisoblanadi. Masalan: Benzovozda keltirilgan neft mahsulotlarni qabul qilib rezervuarlarga quyish, neft mahsulotlarini saqlash va avtotrasportlarga yoqilg'ni tarqatish, turli hujjatlarni yuritish kabi vazifalarni bajaradi. Bulardan tashqari operator qurilmalarni shikastsiz saqlanishi, mahsulotlarni saqlanishi uchun javobgardir. Operator ishga kirishidan oldin qurilmalarni buzulmasdan ishlab turganligiga ishonch hosil qilishi, harakatdagi yoqilg' miqdorini qayd qilishi, zarur hujjatlar, jurnallar mavjudligiga ishonch hosil qilishi kerak. Neft mahsulotlarini qabul qilishda operator rezervuarlarga quyishdan oldin va keyin bezovozdagi sathni o'lchashi, benzovozdan yoqilg'ni AYoQSh, FYoTSH rezervuariga quyilayotganini nazorat qilishi kerak. O'z navbatchilik vaqtida har bir harakatini maxsus jurnallarga qayd qilishi zarur. Bu texnologik jarayonlardagi o'zgarishlarni kuzatib borishi uchun zarur.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

Operatorning vazifasi.

1. AYoQSh, FYoTSH operatori quyidagilarni bajarishi zarur.
 - AYoQSh, FYoTSH dagi mexnat muhofazasi qoidalarini;
 - AYoQSh, FYoTSH dagi yong'in xavfsizligi qoidalarini;
 - AYoQSh, FYoTSH dagi qurilmalar bilan ishlashni;
 - Neft mahsulotlarini qabul qilish va tarqatish tartibini;
2. Ish rejimi navbatchilikni tashkil etiladi. Bir navbatchilikda bir operator faoliyat yuritadi. Navbatchilik vaqtida mahsulotlarni tarqatadi va AYoQSh, FYoTSH binosidan chiqmaydi.
3. AYoQSh, FYoTSH operatori moddiy javobgar shaxs hisoblanadi. Navbatchilik vaqtida qurilmalar, materiallar, bino va inshootlar hamda neft mahsulotlarini benuqson saqlash uchun javobgar hisoblanadi.
4. Operator navbatchilikni qabul qilish taribi:
 - qurilmalar, materiallar va instrumentlarni ishchi holatda ekanligiga ishonch hosil qilishi;
 - ish joyida barcha zarur hujjatlarni mavjudligi va ularni to'ldirilganligini tekshirishi;
 - joriy vaqtda rezervuorlarda mavjud mahsulotlarni qabul qilib oladi. Bunda rezervuorlardagi sathlarni o'lchaydi, hisoblagich ko'rsatkichlarini navbatchilik hisobotiga qayd qilib boradi;
 - AYoQSh, FYoTSH hududidagi va operator xonasidagi tartibni tekshiradi;
 - Navbatchilikni qabul qilishdagooi barcha aniqlangan noxush holat navbatchilik jurnaliga qayd qilinadi. Shundan keyin operatorlar navbatchilik jurnaliga navbatchilikni topshirganligi va qabul qilganligi tasdiqlab imzo qo'yadi. Shundan keyin qabul qiluvchi operator navbatchilik tugaguncha javobgar shaxs qisoblanadi.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

Navbatchilik vaqtidagi vazifalari:

- operator uzlik ravishda istemolchilarga neft mahsulotlarini tarqatadi;
- AYoQSh, FYoTSH hududida tartibni saqlaydi va operator xonasida tartib va ozodalikni saqlaydi;

Neft mahsulotini qabul qilish tartibi:

- kelgan yukning hujjati bilan tanishib chiqadi;
- Benzovozdagi mahsulot sathini o'lchaydi(planka bilan);
- joriy mahsulotni istemolchilarga tarqatishni vaqtinchalik to'xtadi va jurnalga qayd qiladi.

- neft mahsulotini mos rezervuardagi mahsulotni o'lchaydi va jurnalga qayd qiladi.

- haydovchi bilan birgalikda benzoboz rezervuaridan AYoQSh, FYoTSH rezervuariga mahsulotni quyadi;

- vizuol holda idishi bo'lmaganligini tekshiradi;
- quyib bo'lgandan keyin AYoQSh, FYoTSH rezervuolidagi satxni o'lchab jurnalga qayd qiladi.

- neft mahsulotlarini tarqatishni davom qildiradi;

- mahsulot kelganligini *kirish* daftariga qayd qilib qo'yadi.

Ilovada operator tomonidan yuritiladigan kirim daftarining kirim haqidagi qaydlari keltirilgan varaq tasviri keltirilgan. Tasvirda fermer va tashkilotlarni ro'yxati, neft maxsulotlari turlari, har bir fermer va tashkilotlarga qancha miqdorda neft maxsulotlari kirim qilingan raqamlar ifodalangan.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

1.4. Masalaning qo'yilishi

Ushbu bitiruv malakaviy ishda “Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi faoliyatini avtomatlashtirish” masalasi qo'yilgan. Ushbu masalani yechish uchun neft mahsulotlarini yetkazib berish jarayonini tahlil qilish, FYoTSH operatorining lavozim yo'riqnomasini hamda yuritiladigan hujjatlarini, yuritish tartibini o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

Mazkur ishda asosan operator faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni avtomatlashtirish, yani operatorning avtomatlashtirilgan ishchi o'rnini dasturiy ta'minot yaratish zarur.

Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi faoliyatini avtomatlashtirishda quyidagi masalalarni yechish kerak bo'ladi:

- AYoQSh, FYoTSH operatori ish faoliyatidagi hujjatlar tarkibi bilan tanishish;
- AYoQSh, FYoTSH operatori hujjatlarini elektron shakllarini yaratish;
- FYoTSH dagi yoqilg'i ta'minoti ma'lumotlar bazasini yaratish;
- Dasturiy ta'minotni yaratish va testlash;
- Foydalanuvchi yo'riqnomasini tuzish.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

II BOB. Dasturiy ta'minotni yaratishning instrumental vositalari va metodlari

2.1. Avtomatlashtirilgan yoqilg'i quyish shahobchasi dasturiy ta'minotini yaratish vositalari va texnologiyalarini tanlash

Ushbu ishda eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga harakat qilindi. Bunga misol sifatida hozirda dunyo bo'ylab keng qo'llanilayotgan Java tili, bu til o'zining tushinarliligi, ko'p funksionalligi, axborot texnologiyalarining barcha sohalarida qo'llanilishi (universalligi) bilan boshqa tillardan farq qiladi va ommalashgan.

Java texnologiyasi o'ta sodda, xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlab bera oladigan, kuchli, to'la obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili bo'lib, muhit (platforma)ga bo'liq bo'lmagan holda ishlaydi. U bilan xatto eng kichik qurilmalarga ham dasturlar yozish mumkin. Java texnologiyasi to'laligicha Java Virtual Machine(JVM) ga asoslangan. JVM ning vazifasi tarjimonlik ya'ni, dastlab biz yozgan *.java fayl kompilyator yordamida bayt kodga o'giriladi va JVM yordamida esa mashina tiliga o'giradi.

- Havfsizlik (ishonch yuq kodni havfsiz ishga tushirish).
- WORA - Write Once, Run Anywhere (portable).
- Hotirani havfsiz boshqarish
- Tarmoqga dasturlash
- Ko'p oqimli (Multi-thread) dasturlash
- Class lar alohida fayllarda saqlanadi va kerak bo'lsa ishlatiladi
- Dinamik ravishda imkoniyatini oshirish va kengaytirish.
- Java texnologiyalari.

Java SE (Java Standart Edition) - serverda, shaxsiy kompyuterda desktoplarda ishlovchi dasturlar, appletlar yaratish uchun ishlatiladi. Bu texnologiya yordamida yaratilgan dasturlar deyarli barcha Operatsion tizimlarda

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

ishlay oladi(Windows NT, Macintosh, Linux va Solaris). Shu bilan birga JavaSE boshqa Java turlarining asosi hisoblanadi.

Java EE (Java Enterprise Edition) - Java texnologiyalari orasida eng keng tarqalgan turi hisoblanib unda asosan serverda ishlovchi dasturlar yaratiladi, masalan ko'p foydalanuvchili web-saytlar yaratishda keng qo'llaniladi va asosan internetda ishlovchi dasturlarda qo'llaniladi. Java SE ni Java EE dan eng asosiy farqi Java EE o'z tarkibiga Java SE ni olibgina qolmay shu bilan birga ko'pgina boshqa qo'shimcha kutubxonalarni(odatda *.jar) ham o'z ichiga oladi ya'ni: JavaMail, Servlet, JSF(Java Server Face) va boshqa ko'pgina internetga asoslangan qo'shimcha kutubxonalar.

Java ME (Java Micro Edition) - Java SE ning ba'zi qismlarini o'z ichiga oladi, JavaME yordamida kichik qurilmalar uchun dasturlar yozish mumkin, masalan, mikrokontrollerlar uchun dasturlar, mobil telefon uchun o'yinlar, dasturlar yaratish mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek Java dasturlash tilida kompilyator biz yozgan kodni bayt-kodga o'giradi, odatda kompilatsiyadan o'tgan klasslar *.class qisqartirmasi bilan tugaydi va kompilatsiyadan o'tgan klassni Java Virtual Machine (JVM) ga yuklanadi va bayt-kodli fayllarni interpretatsiya qiladi ya'ni mashina tiliga o'giradi va shu bilan birga undagi kodni imkoni boricha optimallashtiradi.

Ushbu ishda Java EE (Java Enterprise Edition) dan foydalanildi, Java EE Javaning eng ommalashgan kutubxonalari to'plami hisoblanadi ya'ni uning ichiga Java ning barcha kutubxonalari kiradi. Java EE dan foydalangan holda web tizim yaratildi, bundan tashqari Mysql – ma'lumotlar bazasi tili, tomcat - serveri, Html , JS va hozirgi paytda keng qo'llanilayotgan Ajax tillaridan ham foydalandim. Quyida ular haqida va ulardan foydalangan qismlarim haqida qisqacha ma'lumotlar.

Umuman olganda Java tilini ma'lumotlar bazasi bilan bog'lashda Javaning

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

JDBC kutubxonalari va drayveridan foydalaniladi. Ushbu ishda MySQL ma'lumotlar bazasi tilidan foydalangan holda ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Quyida Java va MySql bog'lanishiga misol ko'rishimiz mumkin:

```
jdbc.driverClassName=com.mysql.jdbc.Driver
```

```
jdbc.url=jdbc:mysql://localhost:3306/notarius?autoReconnect=true
```

```
jdbc.username= notarius_user
```

```
jdbc.password=123
```

Bu yerda birinchi navbatda ma'lumotlar bazasi bilan bo'g'lanishda ishlatadigan class nomi kiritiladi, men MySql dan foydalanganligim sababli JDBC ning MySQL uchun yozilgan class nomini yozdim. Ikkinchi qatorda ma'lumotlar bazasi joylashgan joy agar o'zimizning kompyuterda bo'lsa localhost, boshqa kompyuterda yoki serverda bo'lsa IP adresi va ishlatilayotgan port orqali ma'lumotlar bazasining nomi yoziladi. Uchinchi va keyingi qatorlarda mos ravishda user nomi va paroli yoziladi bu biz yaratgan ma'lumotlar bazasiga kirish, ma'lumotlarni yozish, tahrirlash, o'chirish va ko'rish imkoniyatlarini beradi.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

2.2. MySQL MBBTda yoqilg'i quyish shahobchasi ma'lumotlar bazasini loyihalash

Ma'lumotlar bazasi quyidagi 3 turdagi modellarga bo'linadi:

1. Daraxtsimon (ierarxik) modellar.
2. Tarmoqli (turli) modellar.
3. Relyatsion modellar.

Relyatsion modellarda ob'yektlar va ularning o'zaro aloqalari ikki o'lchovli jadval ko'rinishida tasvirlanadi. Ma'lumotlarning bunday ko'rinishda tasvirlanishi ob'ektlarning o'zaro aloqalarini yaqqol tasvirlanishiga asos bo'ladi.

Agarda MBda ishtirok etadigan jadvallar bir-biri bilan boglangan bo'lsa, bunday MBni relyatsion MB deb atash qabul qilingan. Bunda jadvallarni bir-biri bilan bog'lash uchun umumny xususiyatga ega bo'lgan unikal maydon tushunchasi kiritilgan. Ushbu tushuncha ba'zan MBning kalitli maydoni deb ham ataladi. Jadvalnnng bir-biri bilan bog'lanish strukturasi bog'lanish sxemasi deyiladi. MB doimo o'zgarib turadi: unga yangi yozuvlar, borlariga esa yangi elementlar qo'shiladi.

MySQL - relyatsional ma'lumotlar bazasini boshqarish sistemasi bo'lib, turli operatsion sistemalarda qo'llanishga moslashtirilgan Open-Source-mahsulot hisoblanadi va ko'pchilik dinamik web-sahifalar uchun asos hisoblanadi. MySQL Shvetsiyadagi MySQL AB firmasi tomonida yaratilgan bo'lib, 2008 yilning fevralida Sun Microsystems tomonidan sotib olingan, undan keyin Sun Microsystemsni Oracle Inc. sotib olinishi natijasida endlikda dastur kodini yaratishgda ushbu firma javobgar. MySQL Server ochiq, ya'ni tekin dasturiy ta'minot bo'lib, General Public License himoyasidadir. MySQL AB/Sun firmasi dastur kodiga mualliflik huquqiga egaligi sababli, ushbu dasturiy ta'minotning kommertsial turi ham bor. MySQL nomining kelib chiqishi aniq emas. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa firmani tashkil qilganlardan biri hisoblanuvchi Monty Wideniusning qizi ismidan va SQL, ya'ni Structured Query Language

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

(Strukturaviy so'rovlar tili) birikmasidan tashkil topgan. Unix, MacOS X va Linuxdan tashqari, MySQL Windows, OS/2 va i5/OS (avvalgi OS/400) uchun ham moslashtirilgan. Windows uchun esa ba'zida ayrim cheklanishlar uchraydi.

1. MySgl- affected -rows

Int MySgl- affected –rows / int

[link- identifier];

Bu erda INSERT, DELETE, UPDATE so'rovlari orqali aniqlangan ustun sonini aniqlaydi.

2. My Sql – close

Int My Sql – close (int[Link – identifier]);

Link – identifier - identifikator orqali server bilan bog'langan ma'lumotlar bazasini yopadi, agarda ma'lumotlar bazasi samarali yopilsa, bu funktsiyaning qiymati chin bo'ladi, aks holda yolg'on qiymatni qabul qiladi.

3. My Sql – connect

Int My Sql – connect (string[host-name [: port]], string [User name], string [password])

Bu funktsiya klientni My Sql serveri bilan o'rtasidagi aloqani bog'laydi.

4. My Sql – create-db

Int My Sql – create-db (data base name,int[Link-identifier])

Bu funktsiya My Sql serverida yangi ma'lumotlar bazasini tashkil qilish uchun xizmat qiladi.

5. My Sql – date -seek

Int My Sql – date –seek (int result-identifier,int row-number);

Bu funktsiya ko'rsatkichini ko'rsatilgan nomerga joylashtiradi. Agar funktsiya yaxshi bajarilsa chin qiymat, aks holda yolg'on qiymat qabul qiladi.

6. . My Sql – db-query

Int My Sql – db-query (string data base, string query, int [link- identifier]);

Serverga My Sql so'rovnomasini jo'natish uchun ishlatiladi. Agar funktsiya

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

samarali ishlasa chin,aks holda yolg'on qiymat qabul qiladi.

7. My Sql -drop-db

Int My Sql -drop-db (string data base-name, int [link- identifier]);

Bu funktsiya My Sql serveridan ko'rsatilgan ma'lumotlar bazasini o'chirish uchun ishlatiladi.

My Sql -errno

Int My Sql -errno(int [link- identifier]);


Bu erda o'zidan oldingi bajarilgan funktsiyada yuz bergan xatolikni nomerini aniqlashda ishlatiladi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan funktsiyalarning hammasi server tomonidan turib bajariladigan funktsiyalardir. Bularni foydalanuvchi kompyuterlarda ishlatishi uchun mo'ljallangan.

Ma'lumotlar bazalari insoniyat bilimlari asosini o'z ichiga oladi. XX asr oxiriga kelib ma'lumotlar bazasi . texnologiyalari paydo bo'ldi va biz kelajakdagi tarix uchun judayam katta ma'lumotlar yig'ishga zga bo'ldik Hamma narsa shundaki ma'lumotlar bazasiga bo'lgan yo'l g'am cheklangandir. Foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishi uchun MBBT ga mos bo'lgan fizik yo'lga ega bo'lishi kerak ya'ni u ma'lumotlar bazasi strukturalari va mavjud bo'lgan so'rov tillari qo'llashi kerak So'rov tillari qandaydir muammolar paydo bo'lsa, bu muammolarni ODBC bayonnomasi hal qiladi, SQL operatorini cheklangan to'plami ixtiyoriy ma'lumotlar bazasi serveriga uzatishga imkoniyat yaratiladi. Ammo bu muammoni bir bo'lagi bo'lib, foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini strukturasini (xatto SQL terminlari orqali xam) tushuna olmaydi va bu keyingi foydalanuvchilarga bir xil interfeysni yaratishga yordam bermaydi. Quyidagi rasmda Java va MySql tillari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rish mumkin.


Ma'lumotlar sxemasi ya'ni jadvallar o'rtasidagi bog'lanishlar ma'lumotlar bazasining mantiqiy strukturasini yaqqol namoyish etadi hamda MBBT dagi mavjud vositalar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshiradi.

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		



Shunday imkoniyatlardan biri bog'liqlik birligi bo'lib, uning yordamida bog'liq jadvallarda ham asosiy jadvaldagi o'zgarishlarni: o'chirish, yangilash va qo'shish amallarini amalga oshirish mumkin.

Ma'lumotlar sxemasida bir xil tipli maydonlari mavjud jadvallarni birlashtirish mumkin.



Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

Ushbu dasturga maxsus login va parol orqali kirishni amalga oshiriladi, bu esa dasturdagi ma'lumotlarning butunligi va maxfiyligini taminlaydi.



Login



Parol



Kirish

Pastki "TANLANG" qismida kirim chiqimlarni, mijozni, mahsulot nomini va qancha miqdorda berilishini tanlab saqlaymiz.

Maxsulotlar

Mijozlar

Hodimlar

Hisobot

Matkariyosov C

Bugungi sana: 18.06.2015

Yangi sana

Mijoz nomi	Navbatchesilik boshida							Kirim							Chigim							Qoldiq						
	Avrto benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avrto benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avrto benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avrto benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol
Markaziy shifxona	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Prokatura	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Abdulla Tojiboy Kalandar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Kazakov Juraxon	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Marjon Rozimov	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Iboratoliya	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0

Tanlang--

Tanlang--

Tanlang--

Saglash

Maxsulotlar

Mijozlar

Hodimlar

Hisobot

Matkarimov C

Bugungi sana: 19.06.2015

Yangi sana

	Navbatchilik boshida										Kirim										Chiqim										Qoldiq									
	AviRo benzini	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	AviRo benzini	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	AviRo benzini	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	AviRo benzini	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol												
Mijoz nomi																																								
Markaziy shifovona	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												
Prokatura	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												
Abdulla To'layev Kalandar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												
Kazakov Juraxon	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												
Marifjon Ro'zimov	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												
Iboratortiya	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0												

--Tanlang--

--Tanlang--

--Tanlang--

Chiqim

--Tanlang--

III

Saqlash

Bajardi:	Kurbanbayev M.D.		Bet:
Tekshirdi:	Raximboyev X.J.		

Maxsulotlar

Mijozlar

Hodimlar

Hisobot

Matkarimov C

Bugungi sana: 19.06.2015

Yangi sana

Mijoz nomi	Navbatchilik boshida							Kirim							Chiqim							Qoldiq						
	Avfio benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avfio benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avfio benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol	Avfio benzin	Dizel	EKO Dizel	Moy M-20 A	I-20 A	CAE	Fersol
Markaziy shifoxona	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Prokatura	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	100.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Abdula Tojboy Kalandar	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Kazakov Juraxon	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
Marifjon Ro'zimov	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0
laboratoriya	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	30.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0	0.0

Kirim

--Tanlang--

--Tanlang--
Markaziy shifoxona
Prokatura
Abdula Tojboy Kalandar
Kazakov Juraxon
Marifjon Ro'zimov
laboratoriya

--Tanlang--

litr

Saqlash

Maxsulotlar

Mijozlar

Hodimlar

Hisobot

Matkarimov C

Bugungi sana: 19.06.2015

Yangi sana

Mijoz nomi	Navbatchilik boshida							Kirim							Chiqim							Qoldiq						
